

ITALYAN TILIDA ARTIKLLARNING QO‘LLANISH USULLARI

Xodjiyeva Gulchehra Norovna

SAMDCHTI Ispan italyan kafedrası o‘qituvchisi

Salaydinova Sarvinoz

SAMDCHTI Italyan tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada italyan tili grammatikasining muhim mavzularidan biri bo‘lgan artikl haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Artikllar ot so‘z turkumi oldidan qo‘llanadi va qachon ulardan foydalanish kerakligi haqida muhim ko‘rsatmalar misollar orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *L’articolo, l’articolo determinativo, L’articolo indeterminativo.*

Ma‘lumki, nafaqat italyan tilshunosligida, balki butun dunyo tillari grammatikasida ham artikllarning o‘rni muhim ahamiyatga ega. “Artikl” so‘zi lotin tilidagi “articulus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “qism”, “band” degan ma‘noni anglatadi. Artikllar ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan so‘zlarning aniqligini, ularning soni va jinsini belgilab keladi. Umuman olganda, artikllar tinglovchi va so‘zlovchiga ma‘lum bo‘lgan shaxs va narsa-buyumlarning qanchalik darajada aniqligi yoki mavhumligini ifodalashga yordam beradi.

Artikllar bizga bir xil shakldagi otlarning jinsini (mujskoy yoki jenskoy) va sonini (birlik va ko‘plik) aniqlashda yordam beradigan elementdir [1]. Artikllar hech qachon ot va unga birikib kelgan sifatdan boshqa so‘z turkumlariga bog‘lanmaydi. Ular o‘zlari bog‘lanib kelayotgan ot bilan jins (mujskoy yoki jenskoy) va sondagi (birlik yoki ko‘plik) mosligini saqlaydi.

Artikllar italyan tilida ikki guruhga bo‘linadi:

1. Aniq artikllar – l’articolo determinativo
2. Noaniq artikllar – l’articolo indeterminativo

Aniq artikllar (L’articolo determinativo)

Aniq artikllar bizga ma‘lum bo‘lgan shaxs yoki narsa-buyum haqida gap ketayotganligini bildiradi. Ushbu artikllar jins (mujskoy yoki jenskoy) va son (birlik yoki ko‘plik) bo‘yicha o‘zgarib, ot oldidan qo‘llanadi [2].

Aniq artikllarning qo‘llanish holatlari:

1. Kasb va mansablarni ifodalashda:

Artikllar insonlarning kasb-korini yoki mansabini ifodalashda ishlatiladi. Masalan:

Hai visto il professore? – “Professorni ko‘rdingizmi?”

Bu yerda “professore” so‘zi suhbatdoshga ma‘lum bo‘lgan professorni anglatadi.

2. Mavhum tushunchalarni ifodalashda:

Artikllar sabr, quvonch, qayg‘u kabi mavhum tushunchalarni ifodalashda qo‘llanadi [3].

3. Noyob narsalarni ifodalashda:

Quyosh, oy, yulduz kabi tabiatdagi yagona va noyob narsalarni ifodalashda ishlatiladi. Masalan:

Il sole splende. – “Quyosh charaqlab turibdi.”

Aniq artikllarning shakllari va ularning qo‘llanishi:

Mujskoy jinsdagi so‘zlar:

- IL: Birlik, undosh harf bilan boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

Il libro – “Kitob”

Ko‘plikda I: I libri – “Kitoblar”

- LO: S + undosh harf, Z, X, P+S, G+N kabi boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

Lo zaino – “Ryukzak”, Lo psicologo – “Psixolog”

Ko‘plikda GLI: Gli zaini, Gli psicologi

- L’: Birlik, unli harf bilan boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

L’amico – “Do‘st”

Ko‘plikda GLI: Gli amici – “Do‘stlar”

Jenskoy jinsdagi so‘zlar:

- LA: Birlik, undosh harf bilan boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

La casa – “Uy”

Ko‘plikda LE: Le case – “Uylar”

- L’: Birlik, unli harf bilan boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

L’amica – “Do‘st (ayol)”

Ko‘plikda LE: Le amiche – “Do‘stlar (ayol)”

Noaniq artikllar (L’articolo indeterminativo)

Noaniq artikllar so‘zlovchi va tinglovchiga noma’lum bo‘lgan shaxs yoki narsa-buyum haqida gapirganda ishlatiladi [4].

Noaniq artikllarning qo‘llanish holatlari:

1. Noma’lum shaxs yoki narsani ifodalashda:

Andrea ha conosciuto una ragazza tedesca. – “Andrea nemis qizi bilan tanishdi.”

2. Biror guruhning a’zosini ifodalashda:

Prendi una mela dal cestino. – “Savatdan bir dona olma ol.”

3. Jismning bir qismini ifodalashda:

Mi sono rotta un dito. – “Barmog‘imni sindirib oldim.”

Noaniq artikllarning shakllari va ularning qo‘llanishi:

Mujskoy jinsdagi so‘zlar:

- UN: Undosh yoki unli bilan boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

Un libro – “Kitob”

- UNO: S + undosh, Z, X, P+S kabi boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

Uno zaino – “Ryukzak”, Uno psicologo – “Psixolog”

Jenskoy jinsdagi so‘zlar:

- UNA: Undosh bilan boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

Una casa – “Uy”

- UN’: Unli bilan boshlanuvchi so‘zlar oldidan:

Un’amica – “Do‘st (ayol)”

Izoh: Mujskoy jinsdagi so‘zlar uchun UN’ shakli ishlatilmaydi.

Xulosa:

Italyan tilining muhim grammatik mavzularidan biri bo‘lgan artikllar og‘zaki va yozma muloqotda muhim o‘rin tutadi. Ularni to‘g‘ri qo‘llash italyan tilida muloqotni yanada ravon va aniq qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan qoidalar italyan tili ixlosmandlari uchun foydali bo‘lishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A. Latino, M. Muscolino. "Una grammatica per tutti". Milano: Edizioni Linguistica, 2018. B. 8.
2. Patrizia Guida, Maria Martina. "Ezercitarci". Roma: Edizioni Grammaticali, 2017. B. 7.
3. Ковалев В. Ф., Красова Галина Алексеевна. "Practical Italian Grammar". ИИФРА-М, 2010 г., B. 10–12.
4. Maurizio Dardano e Pietro Trifone. "Grammatica Italiana ". Firenze: Edizioni Universitarie, 2019. B. 151.